

**Hozirgi zamon O'zbek tili va Ingliz tillarida onomotopik so'zlarni  
o'rganishning nazariy asoslari**

**Nilufar Aliboyeva Mahamatali qizi**

**Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD).**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada onomotopik so'zlarning sintaktik-semantik tahlili o'zbek va ingliz tillaridagi misollar asosida yoritib beriladi va ularning keng qo'llanilishi, flektiv tillar jumladan ingliz tilida mustaqil turkum sifatida taqlidlarning o'zni xaqida so'z yuritiladi. Gap strukturasi onomotopik so'zlarning muhim ahamiyati kasb etishni inobatga olgan holda, mavzuni yoritib berishda badiiy ingliz adabiyotlaridan keng foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** taqlidiy va tasviriy so'zlar, tasviriy ifodalar, tasviriy vosita, ot, fe'l, gap bo'lagi, tovushga taqlid, fleksiya, agglutiniyasiya.

Onomotopik (taqlid) so'zlar-ma'no va shakliy xususiyatlariga ko'ra, so'z turkumlari sirasida alohida har hil sintaktik-semantik guruhni tashkil qiluvchi, kishilar, hayvonlar va jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holat va hodisa obraziga taqlidni ifodalaydi. Tovushga taqlid so'zlar eshitib, obrazga taqlid so'zlar ko'rish bilan aloqadordir. Hozirgi kunda onomotopik so'zlarga mustaqil so'z turkum deb qaralmoqda. Taqlid so'zlar leksik va formal xususiyatlariga ko'ra alohida mustaqil gruppani tashkil etadi. Bu gruppa kiruvchi so'zlar his-hayajon, tuyg'u yoki buyruq-xitobni ifodalamaydi. Ular atrofdagi o'rab turgan muhitda (odam, hayvon, qush, jonsiz predmetlarda) uchraydigan ovoz (tovush)larni qayta tiklab, predmetlar harakati tasvirini esa harakat obrazi sifatida ifodalaydi. Onomotopik so'zlar bu o'zlarning ma'nolaridan kelib chiqib namoyon bo'ladigan so'zlardir. Onomotopik so'zlar tushunchasini misollarsiz tushinishda qiyinchiliklar tug'iladi. Onomotopik so'zlarning hosil bo'lishiga ko'ra quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Suyuqliklar bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: bloop, splash, spray, sprinkle, squirt, drip, drizzle
2. Tovushlar bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: giggle, growl, grunt, gurgle, mumble, murmur, bawl, belch, chatter, blurt
3. To'qnashuv bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: bam, bang, clang, clank, clap, clatter, click, clink, ding, jingle, screech, slap, thud, thump
4. Havo oqimi bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: flutter, fisst, fwoosh, gasp, swish, swoosh, whiff, whoosh, whizz, whip, whisper.
5. Hayvon tovushlari bilan bog'liq bo'lgan onomotopik so'zlar: bark, buzz, arf, baa, cheep, chirp, cluck, hiss, meow.

Tovushga taqlid masalasi bizning eramizdan ilgariyoq tilshunos olimlarning diqqatini o'ziga jalb etgan: biz tovushga taqlid xaqidagi ilk fikrlarni o'sha davrlarda aytilganligini ko'ramiz. Ma'lumki tabiatdagi jonli va jonsiz predmetlar turli xil tovushlar chiqaradi. Kishilar o'z turmush tajribalarida ba'zan ana shunday tovushlarga taqlid qiladilar[1,35]. Tovushni qabul qiluvchi organimiz-----quloq tabiatdagi tovushlarni asosan to'g'ri aks ettiradi. Vladimir Ilich Lenin "simvollar" yoki (ieorogliflar) nazariyasini tanqid qilib, o'zining "Материализм ва эмпириокритицизм" asarida "Surat xech qachon model bilan to'la to'kis tenglasha olmasligi shubhasizdir" deb yozgan edi.

V.I.Leninning bu nazaryasi tilshunoslikdagi tovushga taqlid nazariyasiga tatbiq qilinsa, tildagi taqlid so'zlarni xam tabiatdagi so'zlar bilan tenglashtirish, uning xuddi o'zi deb qarash noto'g'ri ekanligini anglash juda osondir.

Masalan: **Guldur** etib, bulut tarqab,

**Yalt-yult** etib, chaqmoq chaqdi.

Ishchi bobo, seskansangchi,

Sharqqa quyosh chinlab chiqdi.

**shir-shir** etib

Ishchi bobo, tez ochsangchi

Pindiq ochsin yosh navdalar!

Bu misoldagi **Guldur, shir-shir** kabi taqlid so'zlar bulut tarqalishida, manfiy va musbat zaryadlarning to'nashidan kelib chiqqan tovushning yoki shamol harakati natijasida paydo bo'lgan tabiatdagi tovushning o'zginasi emas, balki undan farq qiladi. Ammo biz talaffuz qilgan tovush o'sha tovushlarga ancha yaqinlashib boradi va u shartli ravishda taqlid deb olinadi. Yozma nutqda esa taqlidni berish ham qiyinroq, chunki "har qanday eng yahshi alfavit,hatto, lingvistlar tomonidan yaratilgan transkripsiyalar ham kishi nutqini" ayniqsa, undagi taqlid so'zlarni to'liq aks ettira olmaydi.

Tovushga taqlid so'z ham til ihtiyoriga, uning grammatikasi ixtiyoriga o'tgach, social qiimmat kasb etadi. Shundan so'ng u lingvistikaning tekshirish obekti bo'la oldi. Shunday bo'lgach, taqlid so'zlarni so'z deb atash mumkunmi yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi. Agar u so'z bo'lmaganida edi, lingvistikaning o'rganish obekti ham bo'la olmas edi. Ammo bu masalaga bir tomondan yondoshish juda katta chalkashliklarga olib kelishi mumkun[3,34]. Umuman, so'z, tushuncha, so'z bilan tushuncha o'rtasidagi munosabat masalasida olimlarning fikri xali bir nuqtaga birlashgani yo'q.

Tovushga taqlid so'zlar tushuncha anglatadimi, ularni so'z deb atash mumkunmi degan masala ham ishlanmagan, chalkash masalalardan sanaladi, quyidagilar orqali

ularni ko'rib chiqamiz: tilda har qanday so'z *umumlashtirgani*<sup>68</sup> kabi taqlid so'zlar xam, to'la-to'kis bo'lmasa-da, umumlashtirish xususiyatiga egadir. Tasviriy so'zlarning bu xususiyati ular substantivlashganda, boshqa so'zlar grupasiga o'tganda, boshqa so'z turkumlari vazifasida qo'llanganda, ularga aniqlikdan mavhumlikka siljish paydo bo'lganida yana ham ochiq ko'rinadi. Masalan: dakadangbozlik, chaqchaqlik kabi. **Chaqchaqlik** avjiga mindi (M.Ismoiliy, F.t.o)yoki: **bitbidiq-bitbidiq** degan ovoz eshitildi, **qu-qu, vov-vov** degan tovush *xamon takrorlanadi* degan gaplarni biz *qor yog'yapti, odam gapiryapti* deb tushunmaganimiz kabi, *yog'och qars etib sindi, oldin havo gumbur- gumbur etdi, keyin yomg'ir quydi* kabi gaplardan *qush sayradi, it hurdi* degan tushunchani anglamaymiz. Demak, *bitbidiq, qu-qu-qu, vov-vov, qars-qars, gumbur* kabi so'zlarni o'zbek tilida so'zlashuvchilarning xammasi xam bir xilda tushunadilar.

Tovushga taqlid so'zlar tashqi moddiy dunyoning tovush tomonidan ko'rinishi haqidagi tushunchalarni anglatadi. Tushunchani anglatish jihatidan so'zlar bir birlaridan farq qiladilar. Bir hil so'zlar borki, ular nominativlik funksiyasini bajarib, predmetlik manosi bilan ko'rinadi, ikkinchi bir xil so'zlar esa umumiy funksional va relyativ ma'noda ko'rinadi. Taqlid so'zlarni ana shu ikkinchi gruppada ichida qarash mumkin. Lingvistika qushlarning sayrashidan, itlarning xurishidan, mushukning miyovlashidan paydo bo'lgan tovushlarni ham, jonsiz narsalarning sinishi, bir-birlariga urilishi va boshqa holatlarda paydo bo'lgan tovushlarni ham imitatsiyalarni ham o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Ana shu narsa va jonivorlarning tovushlariga kishilarning taqlid qilishlari natijasida tilda social qimmatga ega bo'lgan tovushlar komplekslaridan tashkil topgan so'zlar paydo bo'ladi. Bu tovush komplekslari til ihtiyoriga o'tgach, til uni silliqlashtiradi, fonetik va struktural forma, ma'no beradi. Natijada, ular gapning biror bo'lagi vazifasini bajara oladi va tushuncha anglatish darajasigacha ko'tarila oladi.

Taqlid so'zlar:

- a) O'zlarining leksik ma'nolariga ega;
- b) Kishida umumiy ta'ssurot hosil qilish darajasiga ko'tarila oladi. Bir tilde gapiruvchi hamma kollektiv asosan ularni bir hilda tushunadi;
- c) O'zlariga hos qurilishga, formaga ega;
- d) Sodda holda asosan yordamchi fe'llar bilan birga keladi;
- e) Gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'lakalari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana bu hususiyatga ega bo'lgan taqlidni so'z deb hisoblash mumkin.

Taqlidni ifoda etuvchi tovush kompleksining soʻz ekanligini eʼtirof qiladigan fikrlar chet el tilshunosligidayam uchraydi.

Amerikalik Blansh Lirnet oʻzining koʻp yillik kuzatishlari natijasida Shimpanze maymunining turli holatda bir necha hil bir-biridan farq qiluvchi tovushlarning yozib olgan. U:

Gak, gakh, gah, kha, nkak deb ovqatlanish vaqtida ovoz chiqaradi

Ko-ko, ku-ku deb hayajonlangan vaqtida shivirlaydi

M-m-m deb meva yeyayotgan vaqtida ovoz chiqaradi

Xo-ox deb tashvishga tushganini, qoʻrqanligini bildiradi

Xux deb uyasiga kirib ketayotganda tovush chiqaradi

Lekin biz maymunning bu hil tovushlarini u ongli ravishda chiqaradi deb ayta olmaymiz. Maymun bu tovushlarni stihiyali ravishda hech narsani tushunmasdan chiqaradi. Bulardan tashqari, tilshunoslikda tasviriy soʻzlarning baʼzi grammatik xususiyatlari: obrazli soʻzlarning tovushga taqlid soʻzlarga, tasviriy soʻzlarning undovlarga munosabatlari va shunga oʻxshash masalalarda ham olimlarimiz oʻrtasida har hil fikrlar davom etib kelmoqda.

### Adabiyotlar

- 1.Qoʻngʻurov R. Oʻzbek tilida tasviriy soʻzlar-T:Fan, 1966, 35-36.
- 2.International Journal of Basic Sciences & Applied Research. Vol, 3 (SP), 219-225, 214//available online at<http://www.isicenter.org>.-P.221.
- 3.Ismatova, Nodira Makhmudovna; Alieva, Nargiza Nodirovna; and Gafurova, Barno Asadjon kizi (2020) "THE NATURE OF CATEGORY OF VOICE IN ENGLISH AND SOME PROBLEMS IN THEIR TRANSLATION," *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*: Vol. 2: Iss. 7, Article 34.